



ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI O'QUVCHILARNING PEDAGOGIK JIHATDAN DARSGA QIZIQTIRISH

N.Saitova

Surxondaryo viloyati Denov tumoni Denov Tadbirkorlik va
Pedagogika institutining o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5716557>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05- Noyabr 2021

Ma'qullandi: 10- Noyabr 2021

Chop etildi: 15- Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Ona

tili, adabiyot, interfaol, metod,

o'qituvchi, o'quvchi, kasbiy

mahorat, pedagog, nazariya.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ona tili darslarida interfaol metodlar hamda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqtirish, didaktik o'yinlarning muhim ahamiyatlari to'g'risida fikr yuritilgan

O'qituvchilik faqat ta'lim berishdangina iborat kasb emas, balki shaxsni shakllantiruvchi va o'quvchida insoniylik tuyg'ularini tarkib toptirishdek oliy maqsadni bajarishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, bugungi pedagog zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklatilgan. Bugun zamonaviy pedagog qanday bo'lishi lozim? Zamonaviy pedagog ijtimoiy faol, qobiliyatli, ma'naviy boy va madaniyatli, innovatsion g'oyalarga intiluvchan bo'lishi, yangiliklar yarata olishi va albatta, o'quvchilarni sevishi lozim.

Ta'lim – tarbiya jarayonini yangidan isloh qilishga kirishilgan bugungi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik salohiyatiga alohida e'tibor berilmoqda.

Ta'lim jarayoni, uni rivojlantirish va o'quv tarbiya jarayoniga yangi pedagogik

texnologiyalarning kengroq joriy etilishi zamirida o'qitish usullarining samarali turlaridan foydalanish ta'lim jarayonining sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni mukammal ravishda egallashlari uchun ta'lim jarayonining samarali va qiziqarli bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining asosiy vazifasi dars jarayonida interfaol usullardan samarali foydalanib, o'quvchining bilim salohiyatini oshirish, kommunikativ sifatlarni tarkib toptirishdan iboratdir. Bunday sifatlarni shakllantirishda o'qituvchi, albatta, bor bilim va mahoratini namoyon eta olishi zarur. Mahoratli pedagog dars jarayonini qiziqarli tashkil eta olsa, interfaol usullardan unumli foydalansa, vaqtni to'g'ri



taqsimlay olsa, didaktik maqsadni aniq qo'ya olsa o'quvchi har bir darsda o'zini ertaklar olamiga tushib qolgandek his qiladi. Zamonaviy pedagog darslarining samaradorligini oshirish uchun hamda o'quvchini o'z faniga qiziqтира olishi uchun uni ruhiyatiga to'g'ri ta'sir eta olishi kerak. O'quvchini jazolash, qo'rqitish, ota-onaga arz qilish, sinfdoshlari oldida izza qilish kabi salbiy illatlar kasbiy mahoratning yetishmasligidan dalolat beradi. O'qituvchidagi bunday salbiy illatlar o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi.

Bugun biz o'z kasbining fidoyisi sifatida innovatsion interfaol usullardan o'quv jarayonida o'rinli foydalansak, mahoratli pedagog qiyofasini yaratgan bo'lamiz. Bizning kasbiy qiyofamiz yanada go'zallashadi. Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq.

Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan

qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya – ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi.



Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "FSMU", "Klaster", "BBXB" metodlarini qo'llash dars

samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari "Ha... yo'q", "Ta'rif egasini top", "Men kimman?", "Domino" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimni namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

Ona tili va adabiyot ta'limining asosiy talablariga ko'ra o'quvchi mavzu bo'yicha belgilangan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash uchun darslikdagi mashq va topshiriqlarni bajarishda mustaqil, ijodiy fikrlashi, kuzatishi, umumiylikni topishi,



farqlarni aniqlashi, xulosa chiqarishi amaliyotda qo'llay olishi kerak.

- Barchamizga ma'lumki, bilim- o'quv jarayonida o'quvchiga beradigan axborot;
- ko'nikma-shu ma'lumotlardan samarali foydalana olish;
- malaka- olingan axborotlarni tanish yoki notanish amaliyotga tatbiq etish;
- kompetensiya- bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish layoqati.
- O'quv tarbiyaviy jarayonda o'quvchining mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash o'zini- o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlash muhimki, «Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda.

Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o'yinlar orqali Ma'lumki, darslarda ta'limning turli texnologiyalaridan keng foydalangan holda madhg'ulotlar tadhiq etish, o'quvchilar qiziqishini inobatga olgan holda, tarqatma materiallardan foydalanish madhg'ulotning samaradorligini ta'minlaydi. Qiziqishni oshiruvchi vositalardan biri bu didaktik materiallardir. Didaktik materiallarga mustaqil va ijodiy ishlash hamda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan muammoli, qiziqarli savollar, ijodiy topshiriqlar, ta'limiy o'yinlar, boshqotirmalar kiradi. Shuningdek, o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonida qo'llaniladigan tarqatmalar, yo'riqnomalar, amaliy ishni tashkil etuvchi grafik jamlanmalar ham darsning tarbiyaviy ahamiyatini oshiruvchi omillardir.

Darslarda didaktik materiallardan foydalanishda quyidagilarga e'tibor berish ahamiyatlidir:

- o'quvchilarni turli muammolarni hal qilishga yo'naltirish;
- turli tadqiqotlar olib borishga yo'naltirish;
- muammoli vaziyat yarata olish va ulardan chiqarilgan ko'nikmalarini shakllantirish;
- darslarda turli tarzdagi amaliy tajribalar o'tkazish;
- yangilimlarni izlash va ularni tahlil qilishga yo'naltirish.

Darslarida turli didaktik materiallardan foydalanishda turli ijodiy topshiriqlar ijodiy mashq, ijodiy mustaqil ish va turli didaktik o'yinlarni ham misol qilish mumkin. Darslarda ijodiy mashq vositasida o'rganilgan bilimlar amaliyotga tatbiq qilinsa, olingan dalillardan yangi



xulosalar chiqarish hamda yangicha faoliyat usullarini faoliyatda qo'llash imkoniyatlari vujudga keladi.

Didaktik vositalardan unumli va samarali foydalanishda kichik guruhlarda yoki individual shakllarda tashkil etiladigan vaziyatlar muhim ahamiyatga ega. Guruhlarda ishlashda o'quvchilarning muloqotga kirishish, o'z fikrini aytish, boshqalar fikrini bo'lmasdan eshitish, faol ishtirok etish, bir-bringing nuqtai nazarini hurmat qilish kabi ijodiy xususiyatlar shakllanadi.

Shu maqsadga muvofiq, ona tili fani darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, elektron darsliklar asosida olib borish o'qituvchi

uchun yaqin ko'makdosh vazifasini o'tashi mumkin. Chunki ona tili fanidagi ayrim mavzularni o'quvchilarga tushuntirish qiyinchilik tug'dirayotganini inobatga olish kerak. O'quvchilarning murakkab mavzularni o'zlashtirishida o'qituvchidan eshitgandan ko'ra AKT orqali ko'rib tushungani o'qituvchining o'ziga ham yordam beradi. O'quvchining yozma nutqiy ko'nikmalarini hosil qilishda nafaqat grammatik bilimlar, balki sara bilimlarni egallashi zarur. Chunki o'quvchilar grammatik bilimlar yordamida to'g'ri jumlar tuzishni o'rgansa, nutqiy bilimlar orqali so'zlarni tanlash, so'zlarni o'z joyida ma'lum ifoda vositalari sifatida qo'llab, mazmunini maqsadga muvofiq ifodalashga o'rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. znanio.ru
2. hozir.orgt
3. fayllar.org
4. moluch.ru
5. uz.denemetr.com
6. baxtiyor.uz
7. saviya.uz